

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## FARDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shakida nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririyat nashriyot bo'limida tayyorlandi.

### Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston) BEZGULOVA O.S. (Rossiya) RASHIDOVA S. (O'zbekiston) VALI SAVASH YYELEK (Turkiya) ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston) AXTARIYEVA R. (Rossiya)	JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya) LEEDONG WOOK (Janubiy Koreya) A'ZAMOV A. (O'zbekiston) KLAUS XAYNSGEN (Germaniya) RAKETIN O. (Rossiya)	G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston) BERDISHEV A.S. (Qozog'iston) KARIMOV N.F. (O'zbekiston) CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya) TOJIBOYEV K. (O'zbekiston) TURAYEV A. (O'zbekiston)
---	--	--

### Tahririyat kengashi

IJTIMOIY GUMANITAR FANLARI BO'YICHA		ANIQ VA TABIIY FANLAR BO'YICHA	
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.prof.	MAMAJONOV M. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d.dots.
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.prof.	KAXAROVA M (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.dots.
TOJIBOYEVA H. (O'zbekiston)	Ped.ilm.tad.institut. p.f.d.(Dsc)	ISOMIDDINOV F. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.
O'RINOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.n.dots.	SABIRDINOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.
USMONOV B. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.	RAHIMOV Z. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.
DAVLYATOVA G. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.n.	XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d.dots.
G'OFUROV A. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.d.prof.	MIRZAYEVA D. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d.(PhD)
XONKELDIYEVA G. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.d.prof.	<b>ANIQ VA TABIIY FANLAR BO'YICHA</b>	
HOLMATOV B. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.n.	O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
XAKIMOV N. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d. dots.	KARIMOV Sh.T (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.dots.
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d.	OTAJONOV S. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
USMONOV B. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d (DSc)	RASULOV R. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
MAXMUDOV O. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d.dots	ONARQULOV K. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
ALIMOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.f.d.(PhD)	SHUHRATOV SH. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.b.f.d dots.
JO'RAYEV H. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d(PhD).dots.	ASQAROV I. (O'zbekiston)	AnDU, k.f.d.prof.
MAMATOV M. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d (PhD).prof.	IBRAGIMOV A.(O'zbekiston)	FarDU, k.f.d.prof.
AHRORQULOV A. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.b.f.d(PhD)	MAMATQULOVA S. (O'zbekiston)	FarDU, k. f.b.f.d (PhD)
G'ANIYEV B. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.dots.	ABDUG'ANIYEV O. (O'zbekiston)	FarDU, g.f.d.(DSc)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.	AXMADALIYEV Yu. (O'zbekiston)	FarDU, g.f.d.prof.
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.	YULDASHEV G. (O'zbekiston)	FarDU, q.x.f.d.prof.
SHUKUROV R. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.dots.	ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.d.prof.
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.doktori.	SHERALIYEV B. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.d.(PhD).
UMAROVA N. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.doktori.	SHERMATOV M. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.n.

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.  
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60  
Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:  
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8  
Bosma tabog'i:  
Ofset bosma: Ofset qog'oz.  
Adadi: 10 nusxa  
Buyurtma №  
FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona, 2023.

rivojlantirish bo'yicha debatlar tashkil etish .....	462
<b>M.Zohidova</b>	
Madaniyatlararo muloqotni ingliz tili darslarida video vazifalar orqali rivojlantirish.....	466
<b>B.Yunusova</b>	
Kombinator leksikografiya – tilshunoslikning nazariy va amaliy asosi.....	470
<b>Z.Alimova</b>	
Navoiyning “Saddi iskandariy” asaridagi forscha-tojikcha so'zlarning semantik jihatdan guruhlanishi .....	475
<b>F.Yuldasheva</b>	
Zamonaviy tilshunoslikda xushmuomalalik tadqiqi .....	480
<b>J.Djamolov</b>	
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nuqtai nazaridan tilni rivojlantirish masalalari.....	484
<b>B.Xolmirzaev</b>	
Tildagi tasviriy ifodalarning tarjimalarda aks etishi.....	490
<b>F.Xalimova</b>	
Badiiy konseptlar tipologiyasi .....	495
<b>D.M.Xoshimova</b>	
Tarjimada xarakter psixologiyasini aks ettiruvchi qiyosiy vositalar tarjimalari .....	499
<b>M.A.Hojiyeva</b>	
Mustaqil ta'lim vositasida bo'lajak filolog mutaxassislarining terminologik kompetentligini Rivojlantirish .....	503
<b>Sh.S.Irgasheva</b>	
Ingliz tilida internet diskursidagi neologizmlar faoliyatining semantik xususiyatlari .....	508
<b>G.M.Mamadjanova</b>	
Konstantalarni asosiy lingvokulturologik birliklar sifatida o'rganish .....	513
<b>V.A.Giyosova</b>	
Murojaat birliklarining ijtimoiy-lisoniy tahlili .....	518
<b>Z.S.Paziljanova</b>	
Madaniyatlararo muloqotda muloqot modellari .....	523
<b>A.A.Haydarov, Z.T.Yadgarova</b>	
Ritm, qofiya, intonatsiya .....	526
<b>I.T.Hojaliyev, M.Sh.Xolmatov</b>	
Xotira matnlaridagi polisemantik so'zlarning semantik-strukturasi .....	530
<b>E.X.Bozorov, A.N.Jo'liiyev</b>	
Neytronlar fizikasi fani ma'ruzlarini o'qitishda “Venn diagrammasi” usulidan foydalanish .....	535
<b>M.M.Bokiyev</b>	
Ateroskleroz kasalligini davolashda ayrim sintetik dorilar va yer qalampirini ahamiyati .....	539
<b>FANIMIZ FIDOYILARI</b>	
<b>SHARIFAXON ISKANDAROVA</b> .....	542

UDK: 81.342.9

RITM, QOFIYA, INTONATSIYA

РИТМ, РИФМА, ИНТОНАЦИЯ

RHYTHM, RHYME, INTONATION

Haydarov Anvar Askarovich<sup>1</sup>, Yadgarova Zebiniso Tolibovna<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Haydarov Anvar Askarovich

– Buxoro davlat universiteti xorijiy tillar fakulteti  
Ingliz tilshunosligi kafedrasasi professori

<sup>2</sup>Yadgarova Zebiniso Tolibovna

– Buxoro davlat universiteti, xorijiy tillar fakulteti  
Ingliz tilshunosligi kafedrasasi tayanch-doktaranti.

**Annotatsiya**

Zamonaviy tilshunoslikda sotsiolingvistika, pragmatik lingvistika, kognitiv lingvistika, etnolingvistika, lingvokulturologiya, lingvopoetika kabi yangi yoʻnalishlar paydo boʻldi. Lingvopoetikada nutq tovushlari, ularda ifodalangan qoʻshimcha maʼnolar, tovushlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari oʻrganiladi. Tovushlardagi maʼnolar tahlil qilinganda ritm, qofiya, intonatsiya kabi stilistik hodisalar muhim fonostilistik vosita boʻlib xizmat qiladi.

Ushbu axborotimizda stilistik figuralar ritm, qofiya hamda supersegment fonetik vosita intonatsiya (ohang) haqida fikr yuritimiz.

**Аннотация**

В современном языкознании появились такие новые направления, как социолингвистика, прагматическая лингвистика, когнитивная лингвистика, этнолингвистика, лингвокультурология, лингвопоэтика. Звуки речи, дополнительные значения, выраженные в них, эмоционально-экспрессивные свойства звуков изучаются в лингвопоэтике. Стилистические явления, такие как ритм, рифма, интонация служат важными фоностиллистическими инструментами при анализе значений звуков.

В данной статье мы рассмотрим стилистические фигуры ритма, рифмы и надсегментного фонетического средства интонации (тона).

**Abstract**

New directions such as sociolinguistics, pragmatic linguistics, cognitive linguistics, ethnolinguistics, linguocultural studies, linguopoetics have appeared in modern linguistics. Speech sounds, additional meanings expressed in them, emotional-expressive properties of sounds are studied in linguopoetics. Stylistic phenomena such as rhythm, rhyme, and intonation serve as important phonostylistic tools when analyzing the meanings of sounds.

In this article, we will consider the stylistic figures of rhythm, rhyme and the supersegmental phonetic tool intonation (tone).

**Kalit soʻzlar:** fonostilistik vosita, ritm, ohangdorlik, ritmiy davriylik, qofiya, tovushli birikmalar, intonatsiya, ritmik-melodik, ohang.

**Ключевые слова:** фоностиллистический инструмент, фоностиллистический прием, ритм, напевность, ритмическая периодичность, рифма, звуко сочетание, интонация, ритмико-мелодия, мелодия.

**Key words:** phono-stylistic instrument, phonostylistic device tool, rhythm, melody, rhythmic periodicity, rhyme, sound combinations, intonation, rhythmic melody, melody.

**KIRISH**

Nutq tovushlari, ularda ifodalangan qoʻshimcha maʼnolar, tovushlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlarini oʻrganuvchi soha boʻlmish lingvopoetikada ritm, qofiya, intonatsiya kabi stilistik hodisalar muhim fonostilistik vosita hisoblanadi. Shuning uchun ham bunday hodisalar tahlili va tadqiqida ularni alohida-alohida oʻrganish bilan birga, biri ikkinchisini taqozo etuvchi hodisalar, boshqacha aytganda, biri ikkinchisiz yashay olmaydigan birliklar ekanligini nazarda tutish kerak.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

**Ritm** tilshunoslikda davriylikni hosil qilish maqsadida nutqning qayta takrorlanadigan maqsadli joylashtirilishi boʻlib, uning maqsadi maʼlum davriylikni hosil qilishdan iborat. Ritm nutqda maʼlum tartibda davriylik hosil qiluvchi faktor hisoblanadi. Ritm faqat qofiyani rostdash uchun sheʼriyatda emas, balki prozaik asarlarda ham namoyon boʻladi.

Mashhur ingliz yozuvchisi Charlz Dikens asarlarida bunday holatni koʻrish mumkin. Jumladan, uning “A tale of Two Cities” asarining boshlanishida nasriy ritmdan foydalanganligini koʻramiz.

TILSHUNOSLIK

It was the best of times,  
It was the worst of times.  
It was the age of wisdom,  
It was the age of foolishness.  
It was the epoch of belief,  
It was the epoch of incredulity.  
It was the season of light,  
It was the season of darkness.  
It was the spring of hope,  
It was the winter of despite.  
We had everything before us,  
We had nothing before us.  
We were all going direct of heaven,  
We were all going the other way.

Quyidagi ingliz tilida berilgan nutq parchasi baland ovozda o`qilsa, u ritm asosida shakllanganini ko`rish mumkin:

"The high-stopping roof of a fine sooty pink was almost Danish and two decky little windows looked out of it, giving an impression that very tall servants lived up there." (J. Galsworthy).

Yuqoridagi parcha tahlil qilinsa, "high stopping", "fine sooty", "decky little" kabi iboralar ritm asosida shakllanganligini ko`rish mumkin.

Ritmning ayniqsa, she'riyatda ahamiyati juda katta. U misralarni bir-biriga bog`lashda hamda so`zlarda o`zaro ohangdoshlik hosil qilishda muhim fonostilistik vosita sifatida xizmat qiladi. Ritmga asoslangan she'r o`quvchini zeriktirmaydi, unga zavq baxsh etadi.

Quyida alliteratsiyaga asoslangan she'riy parchada ritm nutqning qayta takrorlangani natijasida ma'lum davriylik hosil qiladi:

Susan Simpson.  
Sudden swallows swiftly skinning,  
Sunsets slowly spreading shade.  
Silvery songsters sweetly singing,  
Summers soothing serade.  
Susan Simpson strolled sedately,  
Sleeping sobs, suppressing sighs.  
Seeing Stephen slocum, stately  
She stopped, showing some surprise. (B. Franklin).

Yuqoridagi she'riy parchada "s" tovushining takror ishlatilishi alliterativ holat bo`lib, ritmiy davriylikni ifodalab, she'ni ohangdorlik asosida o`qilishini ta'minlaydi. Ritmiy davriylik asosida o`qilgan she'r kitobxonga zavq bag`ishlaydi, unda o`sha so`zlardan o`rinli foydalanilganlikni ko`rsatadi.

**NATIJARLAR VA MUHOKAMA**

**Qofiya.** Bir turdagi yoki bir-biriga o`xshash tovushli birikmalarning so`z oxirida kelishidir. Qofiyaning to`liq, bo`sh, unlilar, undoshlar qofiyasi kabi turlari mavjud. Qofiya she'riyatda katta ahamiyat kasb etadi, u she'ni shakllantiradi, nasriy asarlardan she'riy asarlarni farqlaydi, shu bilan birga ohangdorlikni yuzaga keltiradi. Qofiya she'r ta'sirchanligini oshiradi, ohangdorlikni ta'minlaydi. She'ning asosiy g'oyasini ifodalash uchun ba'zan she'rda uning asosini tashkil etuvchi so`zlarni qofiyalashtiradi.

Ingliz tilida:  
It was many and many years ago,  
In a kingdom by the sea.  
That a maiden there lived when you may know.  
By the name of Annabel Lee;  
And this maiden she lived with no other thought  
Than to love and be loved by me (E. A. Poe).

Qofiyaning ahamiyati she'ning ohangdorligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Shu sababdan qofiya she'ning g'oyasini ifodalash vositasi hisoblanadi. Xalq tomonidan yaratilgan maqol va matallarning ko'pchiligini qofiyaga asoslanib yaratilgan.

Better late, than never. – Hech bo'lmagandan kech bo'lgani yaxshiroq.

It is never too late, to know. – O'qishning kechi bo'lmaydi.

Maqol va matallardan tashqari, xalq dostonlarida ham qofiya ko'p uchraydi.

Oltin edim, cho`yan bo'ldim,

Don edim, somon bo'ldim.

Qimmat edim, arzon bo'ldim,

G'amga qolgan ravshan bo'ldim. (E.Jumanbulbul).

Yuqoridagi she'riy misralarda cho`yan, somon, arzon, ravshan so'zlari o'zaro qofiyalangan.

Quyidagi inglizcha she'riy parchada qofiya va ritm uyg'unligini ko'rish mumkin:

From "Sea Dreams":

What does little birdie say,

In her nest at peep of day.

Let me fly, says little birdie

Mother, let me fly away. (A.Tennyson)

Xuddi shu holatni o'zbek tilida keltirilgan quyidagi she'riy parchada ham yaqqol ko'ramiz:

Bog'chalarda erkin sayrar qushchamiz,

Hoy bolalar, biz ham ozod qushchamiz.

Biz yosh kuchlar – har bir ishda chaqqonmiz,

Keng osmonda uchishda ham qushchamiz. (Bolalar adabiyotidan)

Birinchi qatordagi "qushchamiz" so'zi -bizning kichik qushimiz, ikkinchi qatordagi "qushchamiz" so'zi biz kichik qush bo'lamiz, oxirgi qatorda esa ushbu so'z "qush" kabi (qadar)miz.

Bu ma'no xususiyatlar she'r ohangining qofiya bilan uyg'unlashishi natijasida yoqimli bo'lishini ta'minlaydi.

Har qanday qofiya va ritmga asoslangan she'r intonatsiya bilan aytilgandagina uning ta'sirchanligi yuqori bo'ladi.

Intonatsiya (ohang) (lot. intonare -baland tovush bilan talaffuz etaman).

Nutqning sintaktik ma'nolari va ekspressiv-emotsional bo'yoqlarni ifodalash uchun xizmat qiluvchi ritmik-melodik tomoni, ovozning baland-pastligi, ohang.

Nutq jarayonida ovoz ohangining ko'tarilishi yoki pasayishi, undagi jumla urg'usi, nutq tempi, ovoz tembri intonatsiyada ifodalangan konnotativ ma'no komponentlarini hosil qilishga yordamlashadi.

Intonatsiya har qanday gapning asosiy va xarakterli belgisidir. U gap qurilishida alohida birlik sifatida ishtirok etadi. Shunga ko'ra, intonatsiya ikki vazifani bajaradi, ya'ni noemotsional gaplardan emotsional gap hosil qiladi, shuningdek, so'zlovchining his-tuyg'usini ifodalaydi. Qofiyaga asoslangan har qanday she'rni intonatsiyasiz o'qish uni ta'sirsiz, to'mtoq holatga olib keladi, chunki intonatsiya she'riy nutqni ta'sirchan qilish bilan birga, kitobxonga zavq bag'ishlaydi hamda ohang jarangdorligi asosiy o'rinda bo'ladi.

Shoir Hamid Olimjonning quyidagi she'rida ohangning tasviriy kuchini yanada kuchaytirish maqsadida ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan ravishdoshlari ketma-ket qo'llaydi:

Ey, Farg'ona,

Mushkul kunlar bolasini tishida tishlab,

yuvib,

tarab,

sevib,

o'pib,

quchib,

opichlab,

Ey baxtlarni balog'atga yetkazgan ona! (H.Olimjon)

Ingliz tilida:

Sweet and low,

## TILSHUNOSLIK

Sweet and low,  
Wind of the western sea.  
Low, low, breathe and blow,  
Wind of the western sea.  
Over the rolling waters go (A.Tennyson)

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, og'zaki nutqni intonatsiyasiz shakllantirib bo'lmaydi. Qaysi bir fonetik hodisa stilistik vazifani bajarayotgan bo'lmasin uni intonatsiyasiz tasavvur etish qiyin. Intonatsiya so'zlovchining nutqiga ma'lum uslubiy bo'yoq berishda muhim fonostilistik vosita hisoblanadi. Intonatsiya orqali konnotativ ma'no ifodalanishi boshqa til birliklariga qaraganda kuchliroq bo'ladi. Intonatsiya va uning komponenti pauzaning bir vaqtda qo'llanilishi uslubiy ma'no ifodalaydi.

Intonatsiya supersegment fonetik vositalardan biri bo'lib, unga "Nutqning sintaktik ma'nolari va ekspressiv-emosional bo'yoqlarni ifodalash uchun xizmat qiluvchi ritmik-metodik tomoni, ovozning baland pastligi, ohangi" deb ta'rif berilgan.

Tilshunoslikda intonatsiyaning ikkinchi nomi intoema, u bilan shug'ullanuvchi sohaning nomi esa intologiya ekanligi ham qayd etilgan.

## XULOSA

Shunday qilib, qofiya, ritm va ohangning uyg'unlashuvi she'rning asosiy g'oyasini ifodalash uchun, she'rning ohangdorligini ta'minlashda muhim fonostilistik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Har uchala stilistik figuralar asosida yaratilgan she'r kitobxonni zeriktirmaydi, uni oson yodlashga va xotirasida uzoq vaqt saqlanishini ta'minlaydi.

## ADABIYOTLAR

1. Boboxonova L.T. Ingliz tili stilistikasi. – T.: O'qituvchi, 1995. – B.135.
2. Haydarov A. Konnotativ ma'noning fonetik vositalarda ifodalanishi. – T.: "Navroz" nashriyoti. 2017. – B.93-94.
3. Haydarov. A. A. Intonatsiyaning uslubiy xususiyatlari. BuxDu ilmiy axboroti. 2006. N1.– B. 69-72.
4. Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi. 1985. – B.40.
5. Yuldasheva F.E. The Principle of Politeness in the English and Uzbek Languages. Eurasian Research Bulletin. 2022. – B.65–70.
6. Tolibovna, Y. Z. Expression of Connotative Meaning in Intonation. JournalNX, 7(03), 383-386.<https://www.neliti.com/publications/343131/expression-of-connotative-meaning-in-intonation>
7. Tolibovna, Y. Z., & Nodirovna, B. S. (2021). Phonetic figures of speech and super segmental phonetic devices. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 910917.<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=3&article=150>
8. Kurbanov, S. S., & Saparova, M. R. (2021). BADIY ASAR JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA QARG'ISH ANGLATUVCHI DISFEMIZMLARNING PERSONAJLAR NUTQIDA BERILISHI. Academic research in educational sciences, 2(4), 1246-1251. <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-asar-jozibadorligini-oshirishda-qarg-ish-anglatuvchi-disfemizmlarning-personajlar-nutqida-berilishi>
9. Saidova Mukhayyo Umedilloevna, & Rasulova Nigina Alisherovna. (2022). LEXICOGRAPHIC ANALYSIS OF THE ROUTLEDGE DICTIONARY OF LITERARY TERMS BY PETER CHILDS AND ROGER FOWLER. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(4), 672–675. Retrieved from <https://qiiri.com/index.php/qiiri/article/view/2308>
10. Kobilova Aziza Bakhriddinovna 2022. Semantic and Lingua-Cultural Features of English and Uzbek Medical Periphrases. International Journal on Integrated Education. 5, 6 (Jun. 2022), 162-167. DOI:<https://doi.org/10.31149/ijie.v5i6.3144>.
11. Erkinovna, Y. F. (2022). The Principle of Politeness in the English and Uzbek Languages. Eurasian Research Bulletin, 6, 65-70. <https://www.geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/799>
12. Nafisa Zarifovna, R. . (2022). EVFEMIZMLARNI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI. Scientific Impulse, 1(3), 750–753. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1144>
13. Kodirova Kholida Khayriddin qizi. (2022). The Analysis of Illocutionary Acts in Adventures of Tom Sawyer by Mark Twain. Miasto Przyszłości, 28, 324–328. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/648>
14. Nargiza Bobojonova Jumaniyozovna. (2022). The Term Concept in Modern Linguistics. Miasto Przyszłości, 28, 297–302. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/643>
15. Abdullayeva, G. (2021). Yosh tarjimonlarda sinxron tarjima qilish ko'nikmalarini shakllantirish usullari. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 6(6). [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/3037](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/3037)
16. Ubaydullayeva Muattar O'rinbekovna. (2022). Ingliz tilida frazeologik birliklarning ma'no munosabatlari: ko'p ma'nolilik va omonimiya. Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 300–304. Retrieved from <https://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/116>
17. Khudoyberdievna, S. Z. (2022). THE MAIN FEATURES OF TRANSLATION OF PHRASEOLOGY FROM ENGLISH INTO UZBEK. Scientific Impulse, 1(3), 523-526. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1024>